



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 20-mart

141-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2025-yil 19-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 7-martdagi PQ–96-son qarori ijrosi haqida”gi 138-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 7-martdagi PQ–96-son qarorini viloyatda ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21<sup>1</sup> - moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 7-martdagi PQ–96-son qarorini rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Xotin-qizlarning loyihalarini qo‘llab-quvvatlash uchun quyidagilar hisobidan 2025-yilda qo‘shimcha 200 million AQSH dollari yo‘naltirilishi, bunda:

(a) Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi ikki hafta muddatda yetti yil muddatga yillik Markaziy bankning asosiy stavkasida jami 100 million AQSH dollari ekvivalentida, shundan AT “Xalq banki”ga 35 million AQSH dollari, “Biznesni rivojlantirish banki” ATBga 35 million AQSH dollari va “Mikrokreditbank” ATBga 30 million AQSH dollari miqdorida kredit resurslari ajratishi;

(b) tijorat banklari “Mahalla loyihasi” dasturi doirasida loyihalarni moliyalashtirish uchun tashqi moliya bozorlaridan 100 million AQSH dollari jalb qilishi;

belgilanishicha, xotin-qizlarning loyihalarini moliyalashtirishga:

(a) “Biznesni rivojlantirish banki” ATBga ajratilgan mablag‘lar hisobidan “HAMROH” tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash dasturi doirasida belgilangan tartib va mexanizmlar asosida;

(b) AT “Xalq banki” va “Mikrokreditbank” ATBga ajratilgan mablag‘lar hisobidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida belgilangan tartib va mexanizmlar asosida kreditlar ajratilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining Moliya iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov hamda tuman hokimining o‘rinbosari – tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i v.v.b Yo.Mamitaliyeva zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**